

2024- YIL "YOSHLAR VA BIZNESNI QO'LLAB-QUVVATLASH YILI".

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10581130>

Maqsudova Gulbahor Abdujabbarovna

Toshkent shahar yuridik texnikumi

"Mutaxassislik fanlari" kafedrası o'qituvchisi.

Annotasiya.

2024-yil O'zbekistonda "Yoshlar va biznesni qo'llab-quvvatlash yili" deb e'lon qilindi. Bu haqda Shavkat Mirziyoyev mamlakat xalqiga yo'llagan Yangi yil tabrigida ma'lum qildi.

"Inson qadrini ulug'lash, aholimiz manfaatlarini ta'minlash, buning uchun kuchli iqtisodiyot barpo etish bizning asosiy vazifamizdir", – dedi u.

"Yangi yilda iqtisodiyotimizga xorijiy investitsiyalarni jalb etish, tadbirkorlik va xususiy mulk uchun keng imkoniyatlar yaratishni yanada kuchaytiramiz. Ilm-fan, innovatsiya, IT kabi sohalarni, „yashil“ va raqamli texnologiyalarni rivojlantirishga alohida e'tibor qaratamiz", – deb va'da berdi prezident.

Kalit so'zlar

"Yoshlar daftari", Prezident farmoni, Yoshlarning ijtimoiy-siyosiy hayotdagi o'rni, "Temir daftar", "Ijtimoiy shartnoma", separatizm, fundamentalizm, ratifikatsiya

Kirish.

Mana 2023 yil ham tarix sahifalarida muhrlanib qoldi. Ushbu yil O'zbekistonimiz uchun olamshumul ahamiyatga molik voqeliklarga boy yil bo'ldi. Binobarin, 2023 yil el-yurtimiz uchun qut-barakali va omadli kelib, eng muhimi, yurtimizda tinchlik-osoyishtalik, turli millat vakillari o'rtasida do'stlik va hamjihatlik hukm surayotganligi, "Inson qadri uchun" tamoyili asosida kelgusi taraqqiyotimizni belgilab beradigan "O'zbekiston – 2030" strategiyasini amalga oshirish ishlari boshlandi.

Yangi 2024 yil arafasida Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning O'zbekiston xalqiga Yangi yil tabrigi e'lon qilindi. Tabrikda 2023 yilda hayotimizda chuqur iz qoldirgan asosiy tadbirlar haqida bayon etilib, tariximizda ilk bor xalqimiz referendum yo'li bilan yangilangan Konstitutsiyamizni qabul qilganligi alohida ta'kidlab o'tildi.

Prezidentimiz ta'kidlaganlaridek, "...albatta, hayot bor ekan, uning yutuq va quvonchlari, tashvish va muammolari ham bo'lishi tabiiydir. Ammo inson va xalq

aql-zakovati, halol mehnati, mustahkam irodasi bilan har qanday sinovlardan munosib o'tishga qodir".

Mamlakatimizga millionlab xorijliklar tashrif buyurib, olib borilayotgan bunyodkorlik ishlariga ijobiy baholarini berishdi. Prezidentimiz tomonlaridan xalqaro maydonda muhim tashabbuslar ilgari surildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tomonidan Inson qadrini ulug'lash, aholimiz manfaatlarini ta'minlash, buning uchun kuchli iqtisodiyot barpo etish kabi muhim vazifamizni hayotga tadbqiq etish maqsadida 2024 yilni mamlakatimizda "Yoshlar va biznesni qo'llab-quvvatlash yili", deb e'lon qilindi.

Bizningcha, "Yoshlar va biznesni qo'llab-quvvatlash" degan iboraning tagida olam-olam ma'no mujassam.

Avvalo, mamlakatimiz yoshlar mamlakati. Aholimizning 60 foizdan ortig'ini yoshlar tashkil etadi. Bu degani maktabgacha ta'lim qamrovini oshirish, xalq ta'limi tizimidagi muammolarni yechish va ta'lim sifatini oshirish choralarini ko'rish, bu oliy ta'lim tizimidagi islohotlarni yanada chuqurlashtirish, oliy ta'limni sifat jihatdan yuqori bosqichga olib chiqish, bu oliy ta'limdan keyingi ta'lim tizimidagi muammolarni bartaraf etish, yoshlarga kasb-hunar o'rgatish tizimini mukammallashtirish, umuman yoshlar uchun yangi ish o'rinlarini yaratish va h.k. Har yili mamlakatimiz aholisi 900 mingdan ortiq nafarga ortayotganligi esa ushbu masalalarga tizimli va tezkor yechimlar topishni taqozo etadi.

Endi "biznesni qo'llab-quvvatlash" deganda nimalarni tushunamiz, shu masalaga ham bir diqqatimizni qaratsak. Avvalo "Biznes" so'zining lug'aviy ma'nosiga e'tiborimizni qaratsak, inglizcha business - ish, mashg'ulot, korxonalar, degan ma'nolarni anglatadi. Demak, biznesni qo'llab-quvvatlash deganda bandlikni, mashg'ullikni, korxonalarni qo'llab-quvvatlashni tushunishimiz kerak. Shuningdek, biznes deganda, faqat pul topishga qaratilgan sohani emas, balki doimiy ravishda e'tiborga, qo'llab-quvvatlashga ehtiyoji bor sohani tushunishimiz lozim. Ya'ni davlat tomonidan biznes qanchalik qo'llab-quvvatlansa, biznes ham mamlakatning rivojiga, taraqqiyotiga, xizmatlar sifatining oshishiga, mamlakat imijining ko'tarilishiga va alaloqibat xalqning farovonligiga xizmat qiladi. Biznes qanchalik rivojlansa, unga shunchalik ko'p ishchilar kerak bo'ladi, bu esa aholi, ayniqsa, yoshlar bandligini ta'minlaydi, yoshlarning noqonuniy migratsion jarayonlarga jalb etilishini kamaytiradi.

Prezident tabrigida ta'kidlanganidek, yangi yilda iqtisodiyotimizga xorijiy investitsiyalarni jalb etish, tadbirkorlik va xususiy mulk uchun keng imkoniyatlar yaratishni yanada kuchaytirish, ilm-fan, innovatsiya, IT kabi sohalarni, "yashil" va

raqamli texnologiyalarni rivojlantirishga alohida e'tibor qaratiladi. Ijtimoiy sohalar rivoji mutlaqo yangi bosqichga ko'tariladi. Muxtasar aytganda, yangi hayotni, Yangi O'zbekistonni barpo etish uchun bor kuch va imkoniyatlar to'liq safarbar etiladi.

Yangi yilning "Yoshlar va biznesni qo'llab quvvatlash yili" deb e'lon qilinishi esa zakovatli, salohiyatli, tashabbuskor yoshlar yangi O'zbekistonni umidi, istiqboli ekanligiga qat'iy ishonch va bu yo'ldani davlat siyosatining aniq maqsadlarga asoslanganligi bo'lsa, tadbirkorlikni rivojlantirish orqali xalqimiz farovonligini yanada oshirish, yurtimizda yangi ishchi o'rinlarini yaratishga tizimli chora tadbirlar orqali erishish niyati mujassamdir.

Har bir ezgu maqsad zamirida esa O'zbekistonni davlat, xalqini millat sifatida dunyo miqyosidagi mavqeyini ko'tarish, suverenitetini saqlash va mustahkamlashdek nihoyatda dolzarb vazifani hayotga tatbiq etish yotibdi. Ayniqsa, murakkab tashqi munosabatlar davlatlararo ziddiyatlar avj olgan hozirgi pallada davlatimizning xavfsizligini, mustaqilligini ta'minlash hamisha hushyor, ogoh bo'lish, yaxshi qo'shnichilik, xalqaro hamkorliklarni kuchaytirish zarurdir.

Qolaversa, davlat rahbari shu yurtning fuqarosi, oddiy inson sifatida orzu qilib, duolarida so'ragan ezgu niyatlari barchamizning qalbimizda doimo bardavomdir. Yaratganning o'zi butun dunyoni, shu qatori yurtimizni omonda saqlasin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI.

1. Shavkat Mirziyoyev. Yangi O'zbekiston Strategiyasi. - Toshkent: "O'zbekiston" nashriyoti, 2021. 464 bet

2. O'G'LI, J. S. S. (2021). ABU ALI IBN SINONING FALSAFIY QARASHLARIDA AXLOQ MASALASI VA UNING BUGUNGI KUNDAGI AHAMIYATI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 1(3), 114.

3. Jurayev, S. S. O. (2021). Abu Ali ibn Sinoning falsafiy qarashlarida baxt-saodat masalasi. *Academic research in educational sciences*, 2(Special Issue 1), 395-401

4. <https://advice.uz/oz/document/2394>

5. [Lex.uz/docs/-5512119](https://lex.uz/docs/-5512119)

6. Shavkat Mirziyoyev Yangi O'zbekiston Strategiyasi. - Toshkent: "O'zbekiston" nashriyoti, 2021. 464 bet